

TURK ADABIYOTIDAGI VIZUAL POETIKANING O'RGANILISH TARIXI

*Farg'ona davlat universiteti magistranti
Xudoyberdiyeva Nargizaxon Zokirjon qizi
O'zbekiston tuman Dasht-xasan MFY yoshlar yetakchisi
Xudoyberdiyev Otajon Rustamovich*

Annotatsiya: Ushbu maqolada turk adabiyotining nodir namunalari bo'lgan vizual poetika bilan bog'liq bo'lgan qarashlar o'z aksini topgan. Shu bilan birgalikda ushbu yo'nalish borasida qator ilmiy tadqiqotlar olib borgan olimlarning fikr-mulohazalari o'rganilib, tadqiq qilingan.

Turk adabiyotida vizual poetikaning nodir namunalarini uchratish mumkin. "Bezakli she'r", "Shaklli she'r", "Tasviriy she'r", "Beton she'r" nomlari bilan yuritiladigan bu tur Turkiyaga Yevropa adabiyotidan kirib kelgan. Yevropada esa bu she'r turi 1950-yillarda paydo bo'lgan va eng ko'p Germaniyada ommalashgan. Turkiyada vizual poetika atamasining paydo bo'lishi 1980-yillarga to'g'ri keladi. Kandiller ve Yurdakullarning 1986-yilda Janubiy Afrika va Germaniya adabiyotshunoslarining ishlarini tarjima qilgan "Mavhum she'r"¹ nomli asari bu boradagi ilk ishlardan biri bo'lsa ham, ammo u turk adabiyotiga bog'liq bo'lmaganligi uchun bu tarjima asarni turk adabiyotidagi vizual poetika mavzusiga oid asar deb aytish mumkin emas. Pazarkayaning 1996-yilda nashr qilingan "Konkret she'r"² nomli asari esa turk adabiyotida bu boradagi daslabki ish bo'ldi. Pazarkayaning ushbu izlanishlaridan keyin bu sohaga oid turli izlanishlar olib borildi. Jumladan, Go'kalp Alparslon³ ning maqolalari ham vizual poetikaning Turk adabiyotidagi o'rnini aniqlab beradi. Bundan tashqari O'rmut⁴ o'zining ikkita maqolasi bilan ham vizual she'r tushunchasini tanitgan, ham bu turning chet el adabiyotidagi ahamiyatini o'rganadi. Shenodeyijining⁵ 2012- yilda nashr qilingan "Osmanlining vizual she'rlari" nomli asarida "Figurali she'rlar"ni tahlil qilib, uning bu davrgacha mavjud bo'lgan turlardan ustun jihatini yoritib bergan. Bundan tashqari Balji, Daranjiklarning⁶ ham bu borada olib borgan ilmiy izlanishlari keng miqyosda ommalashgan. Ushbu tadqiqotlarda bu poetika nomi, asosan, "Konkret she'r" nomi bilan yuritilsada, ammo ba'zi o'rinlarda "Ekspremental she'r", "Figurali she'r", "Tasviriy she'r" deb nomlangan turlarini ham uchratish mumkin. Bu esa o'z navbatida tushunchalar o'rtasidagi mtanosiblikni keltirib chiqardi. Ali Osman O'zturk⁷ esa bu chalkashlikni bartaraf qilish maqsadida ilmiy

¹ Kandiller, Bülent ve Kavas, Yurdakul: Somut Şiir. İstanbul: Uçurum, 1986

²Pazarkaya, Yüksel: Somut şiir. Açı Yayınları. 1996 ●

³ Ali Osman Öztürk - Dalım Çiğdem Ünal - Ünal Kaya Gökalp Alpaslan, Gonca: Türk Edebiyatında Somut (Görsel) Şiir. Türkbilgi/Türkoloji Araştırmaları Dergisi, 6(10), 2005, s. 3-16

⁴ Özmüt, Orhan: Konkrete Poesie in Lehrwerken für Deutsch als Fremdsprache. Uludağ Üniversitesi Eğitim Fakültesi Dergisi, 18(1), 2005, s. 181-206. Özmüt, Orhan: Erarbeitung eines Unterrichtskonzepts für die konkrete Poesie im Fremdsprachenunterricht. Uludağ Üniversitesi Eğitim Fakültesi Dergisi, 19(2), 2006, s. 383-398

⁵ Şenödeyici, Özer: Osmanlı'nın Görsel Şiirleri. İstanbul: Kesit, 2012.

⁶ Balcı, Umut ve Darancık, Yasemin: Almanca Yazın Terimleri Sözlüklerinde Somut Şiirin Tanımı. Çukurova Üniversitesi, Eğitim Fakültesi Dergisi, 34, 2007, s. 101-116.

⁷ Adler, Jeremy & Ernst, Ulrich: Text als Figur. Visuelle Poesie von der Antike bis zur Moderne, Weinheim, 1987

izlanish olib boradi. U aytadiki, “Konkret she’riyat ustida olib borilgan tadqiqotlarda bu tushunchaga o’xshash atamalar ko’pincha aralash holda qo’llanilganligi kuzatilmoqda. Tasviriylik asosiy o’rinni egallagan ushbu she’r bazi tadqiqotchilar talqinida “mavhum she’r”, “Ekspremental she’r”, “Akustik she’r”, “Tasviriy she’r” nomlari bilan yuritilgani ko’rilmoqda. Bu atamalarning hammasi bir xil ma’nodami? Agar bir xil bo’lsa nima uchun turli nomlar bilan yuritilmoqda? Bir she’r ham “Tasviriy she’r” ham “Ekspremental she’r” bo’la oladimi? “Figurali she’r” bilan “Konkret she’r” o’rtasida biron- bir bog’liqlik bormi, yoki bular tamoman boshqa boshqa she’rlarmi? Bu savollarni berishdan maqsad she’r turlarini aralashtirib yubormaslikdir. Biz bu atamalarni bir-biridan farqlashimiz, ularni aniq faktlar bilan isbotlashimiz kerak”.⁸ Ushbu gaplarning isboti sifatida Ali Osman yuqorida nomi tilga olingan terminlar ustida ilmiy zilanish olib bordi va quyidagi xuolosalariga keldi: “ “Konkret she’r” va “Ekspremental she’r” sinonim sifatida ayni bir ma’noni ifoda etadi. “Figurali she’r”ning ildizi esa juda qadimga borib taqaladi. Har ikki termin orasida o’xshashlik bo’lsada, aslida bir-biriga bog’liq bo’lmagan ikki tur sifatida rivojlangan”.⁹ Shu bilan birgalikda bu ikki termini yana ham batafsil ochib bergan olimlar qatoriga Adler, Ernest¹⁰ va Balci Daranciklarni ham kiritish mumkin. Ular bildirgan fikrni quyidagi javdal asosida ko’rishungiz mumkin.

Figurali she’r	Konkret she’r
Kelib chiqishi antik davrga borib taqaladi	1950-yillarda bir oqim sifatida maydonga chiqdi
Davr ijtimoiy hayotiga bag’ishlangan she’r	Ikkinchi jahon urushi ta’siri ostida shakllandi
Tangriga maqtov tarzda ommalashgan	Natsislar keltirib chiqargan til muammolarini bartaraf etish maqsadida ommalashgan
Til-din munosabatini ochib beradi	Til-haqiqat musobotini ochib beradi
Muammoli vaziyat tavsirini yaratish	Muammoli vaziyatlarni til unsurlari yordamida ifoda etib, o’quvchini mulohaza yuritishga majbur qilish
Faqat tasviriydir	Ham tasvir, ham tovush
Urf-odat, an’analarga bog’liq holda olib boriladi. ¹¹	Universal va rivojlanish bilan bog’liq holda olib boriladi ¹²


⁸ Adler, Jeremy & Ernst, Ulrich: Text als Figur. Visuelle Poesie von der Antike bis zur Moderne, Weinheim, 1987

⁹ Adler, Jeremy & Ernst, Ulrich: Text als Figur. Visuelle Poesie von der Antike bis zur Moderne, Weinheim, 1987

¹⁰ Adler, Jeremy & Ernst, Ulrich: Text als Figur. Visuelle Poesie von der Antike bis zur Moderne, Weinheim, 1987.

¹¹ Adler, Jeremy & Ernst, Ulrich: Text als Figur. Visuelle Poesie von der Antike bis zur Moderne, Weinheim, 1987

¹² Balci, Umut ve Darancik, Yasemin: Almanca Yazın Terimleri Sözlüklerinde Somut Şiirin Tanımı. Çukurova Üniversitesi, Eğitim Fakültesi Dergisi, 34, 2007, s. 101-116.



ordnung	ordnung
ordnung	ordnung
ordnung	ordnung
ordnung	ordnung
ordnung	ordnung
ordnung	unordn g
ordnung	ordnung
ordnung	ordnung
ordnung	ordnung
ordnung	ordnung

Bu yerda keltirilgan birinchi she'r Richard Vilisga tegishli bo'lib figurali she'rga misol, ikkinchi she'r Gomringer ijodiga mansub bo'lib konkret she'rga oid namunalar sanaladi. Ali osmanning tadqiqotlaridan o'rin olgan ushbu ikki she'r turiga yuqoridagi jadvalda berilgan fikrlarning aynan isboti desak yanglishmaymiz nazarimda. Unga ko'ra "Matn-rasm kombinatsiyalaridan paydo bo'lgan birinchi she'r tasvir tarafdan qanot va ikki tarfli bolta rasmini aks ettirgan. Har uch tasvir diniy holat bilan mutanosib ravishda yaratilgan. Bolta Xristianlikning tarqalish davridagi urushlar va din uchun kurashlar ramzi sifatini anglatrsa, qanotlar esa o'limdan keyin gunahlardan poklanish va Tangri huzuriga ko'tarilish ramzini bildiradi"¹³. Bu ta'riflardan ko'rinib turibdiki, yuqorida "Figurali she'rlar"ga berilgan ta'rif to'g'ri berilgan. Gomringerning "Ordnung" she'ri esa "1950-yillar natsislar keltirib chiqargan tildagi ayrim g'alizliklar ta'sirida vujudga kelgan "Konkret she'r" namunasi tipik misolidir. Bu she'rdan maqsad faqat tasvir paydo qilish emas, tasvir orqali o'quvchini mulohaza qilishga majbur qiladi. Bundan tashqari, so'zlarning joylashishidagi tasviriylik ham aytilmoqchi bo'lgan fikrni go'yo natsislarga nisbatan yozilgan maktub sifatida aks etib turadi"¹⁴.

Turk adabiyoti nazariyalariga ko'ra "Konkret she'r" modern she'rning bir turi sifatida o'z ichida "Tasviriy she'r" va "Akustik she'r" kabi turlarga bo'linadi. Bulardan "Tasviriy she'r" harf, bo'g'in va so'z birikmalarining qolgan harf, bo'g'in va so'z birikmalariga qaraganda boshqacharoq tarzda yozishi yoki aynan bir so'zni takrorlash va she'r ichida o'ynoqi muhit va taassurotni berishi natijasida tasviriylik vujudga keladi. "Akustik she'r" turida esa faqat tovushlar takrori asosida tasviriylik va mazmun ustuvorlik qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Kandiller, Bülent ve Kavas, Yurdakul: Somut Şiir. İstanbul: Uçurum, 1986
- 2.Pazarkaya, Yüksel: Somut şiir. Aç Yayınları. 1996.
- 3.Ali Osman Öztürk - Dalım Çiğdem Ünal - Ünal Kaya Gökalp Alpaslan, Gonca: Türk Edebiyatında Somut (Görsel) Şiir. Türkbilig/Türkoloji Araştırmaları Dergisi, 6(10),

¹³ Adler, Jeremy & Ernst, Ulrich: Text als Figur. Visuelle Poesie von der Antike bis zur Moderne, Weinheim, 1987

¹⁴ Adler, Jeremy & Ernst, Ulrich: Text als Figur. Visuelle Poesie von der Antike bis zur Moderne, Weinheim, 1987

2005, s. 3-16

4. Özman, Orhan: Konkrete Poesie in Lehrwerken für Deutsch als Fremdsprache. Uludağ Üniversitesi Eğitim Fakültesi Dergisi, 18(1), 2005, s. 181-206. Özman, Orhan: Erarbeitung eines Unterrichtskonzepts für die konkrete Poesie im Fremdsprachenunterricht. Uludağ Üniversitesi Eğitim Fakültesi Dergisi, 19(2), 2006, s. 383-398

5.Şenödeyici, Özer: Osmanlının Görsel Şiirleri. İstanbul: Kesit, 2012.

6.Balcı, Umut ve Darancık, Yasemin: Almanca Yazın Terimleri Sözlüklerinde Somut Şiirin Tanımı. Çukurova Üniversitesi, Eğitim Fakültesi Dergisi, 34, 2007, s. 101-116.